

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA TA'LIM UCHUN AJRATILAYOTGAN
IMKONIYATLAR

Maxmudova Nargiza Soat qizi

Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti ingliz filologiyasi yo'nalishi talabasi
nanizng@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Davlat siyosati doirasida qabul qilingan strategik hujjatlar, imtiyozli kreditlar, grantlar, kvotalar hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ayollarning bilim olish imkoniyatlari kengayishi, ilm-fan va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslar yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, xotin-qizlar, ta'lim imkoniyatlari, davlat siyosati, grant, kvota, imtiyozli kredit, gender tenglik, oliy ta'lim, ilmiy faoliyat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the legal, social, and economic opportunities created in Uzbekistan for women to pursue education. Within the framework of state policy, strategic documents, preferential loans, grants, quotas, and financial support mechanisms are examined. It also highlights initiatives aimed at expanding women's access to higher and secondary specialized education, as well as encouraging their participation in science and entrepreneurship.

Keywords: Uzbekistan, women, educational opportunities, state policy, grant, quota, preferential loan, gender equality, higher education, scientific activity, social support.

Абстрактный: В данной статье научно проанализированы правовые, социальные и экономические возможности, создаваемые в Узбекистане для получения образования женщинами. В рамках государственной политики изучены стратегические документы, льготные кредиты, гранты, квоты и механизмы финансовой поддержки. Также освещаются инициативы, направленные на расширение возможностей женщин в системе высшего и среднего специального образования, а также на стимулирование их деятельности в сфере науки и предпринимательства.

Ключевые слова: Узбекистан, женщины, образовательные возможности, государственная политика, грант, квота, льготный кредит, гендерное равенство, высшее образование, научная деятельность, социальная поддержка.

KIRISH

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida quydagi ishlar amalga oshiriladi.

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko'p bo'lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarida, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda. Ularning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi.

2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish, chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab, budget tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi belgilab qo'yildi.[1]

Xotin-qizlarga ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

- Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari yo'naltirish;

- Moliya vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ikki oy muddatda mazkur kichik bandda nazarda tutilgan mablag'larni ajratish grafigini tijorat banklari kesimida tasdiqlash;

- Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtirish;

- Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha – 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratib boorish;

- Moliya vazirligi ushbu kichik bandda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "El-yurt umidi" jamg'armasiga har yili Davlat budjetidan kamida 6 milliard so'm ajratilishini ta'minlash;

- Har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyalariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan 150 nafardan jami 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplab berish.[2]

- Mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Qo'mita tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish amaliyotini joriy etish.

- Davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borish.

-Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining asosan xotin-qizlarga dizayn, to'qimachilik, axborot texnologiyalari, tarmoqlar iqtisodiyoti, marketing va talab yuqori bo'lgan boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim beradigan alohida universitetni, ushbu universitet huzurida paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida bosqichma-bosqich hududiy texnikumlarni tashkil etish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham mazkur farmonlar belgilab qo'yildi.

Ikki oy muddatda "Bo'lajak olim" tanlovi doirasida "Ayollar biznesi uchun birinchi qadam" tanlovini o'tkazish uchun Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kamida 10 milliard so'm ajratilishini ta'minlasin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazlari huzurida malakani baholash markazlari tashkil etiladi;

malakani baholash markazlari kasbiy malaka talablarini ishlab chiqadi va salohiyatli ta'lim muassasalariga davlat buyurtmasini beradi;

o'quv kurslarini tugatgan xotin-qizlar bilimi darajasi malakani baholash markazlari tomonidan aniqlanadi va shu asosda ularga malaka sertifikatlari beriladi;

malaka sertifikatini olgan xotin-qizlarga mehnat faoliyatini boshlashi uchun o'qish xarajatlariga teng miqdorda malakani baholash markazlari tomonidan subsidiyalar beriladi;

malakani baholash markazlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, akademik litsey va kollejlarning bitiruvchi sinf o'quvchi-qizlarini axborot texnologiyalari yo'nalishlarida qo'shimcha kurslarda o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasi beriladi.

"2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonunga asosan 2022-yilda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlashga ko'maklashadigan hamda ularning muammolari bilan shug'ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlariga 17,1 milliard so'm miqdoridagi grant mablag'lari ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. Qishloq joylaridagi ayollarni kasbga o'qitish, tadbirkorlikka jalb qilish va ish bilan ta'minlash loyihalarini amalga oshirish maqsadida 2023-yildan boshlab, har yili nodavlat tashkilotlarga bazaviy hisoblash miqdorining 7 ming baravari miqdorigacha grantlar berish uchun Davlat budjetidan kamida 50 milliard so'm Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga ajratib boriladi. Shuningdek, 2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqildi, mazkur dasturga ko'ra;

O'zbekistonda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar" doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida "Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning o'z huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishida ularni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi dasturlarni kengaytirish talab etiladi.

2022 – 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Milliy dastur O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Milliy dasturda xotin-qizlarning huquqlariga inson huquqlarining ajralmas bo'lagi sifatida qaraladi hamda u "Inson qadri uchun" tamoyilidan kelib chiqqan holda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Milliy dasturning amalga oshirilishi kelgusida quyidagi natijalarga olib kelishi kutilmoqda:

- "Bir million dasturchi" loyihasida ishtirok etadigan xotin-qizlar soni 30 foizga yetkaziladi;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xotin-qizlar bandligiga ko'maklashish maqsadida 14 ta hududda kooperativlar faoliyati yo'lga qo'yiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga o'qishga tavsiya etilgan nomzodlar orasida xotin-qizlar ulushi 30 foizgacha yetkaziladi;

- oliy ta'lim muassasalarida psixolog mutaxassislarga ehtiyoj yuqori bo'lgan sohalar bo'yicha qabul parametrlari 30 foizga oshiriladi;

- tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining 46 ta tug'uruq bo'limi negizida tumanlararo perinatal markazlar tashkil etiladi;

- respublikada istiqomat qilayotgan 337 mingdan ziyod xotin-qizlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya choralari bilan qamrab olish ko'lamini kengaytiriladi, ularni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlarida ambulator reabilitatsiya qilish mexanizmlari joriy etiladi;

- xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari takomillashtiriladi, xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilik normalari ijrosi qat'iy nazoratga olinadi;

- gender tenglikka erishish darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida mamlakatimizning o'rni sezilarli oshiriladi;

- xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrashining oldi olinadi;

- jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan xotin-qizlarning jamiyat hayotiga moslashuvchanligi oshadi;

- chet elga ishlash uchun chiqib ketgan xotin-qizlarni huquqiy qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yiladi;

- odam savdosining oldi olinadi;

- xotin-qizlar orasida ishsizlik darajasi kamayadi, ayollar tadbirkorligi oshib, kambag'allik qisqartiriladi;

- og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarning turmushi yaxshilanadi;

-nogironligi bo'lgan yoki nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ayollar, uy-joysiz, boquvchisi bo'lmagan, o'zgarar parvarishiga muhtoj ayollar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi;

-xotin-qizlarning salomatligi mustahkamlanadi, onalik va bolalik muhofaza qilinadi;

-davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyi yanada mustahkamlanadi;

-xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratiladi, ilm-fan sohasida ayollarning o'rni oshadi;

-xotin-qizlarning sport bilan shug'ullanishi va madaniy hordiq chiqarishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratiladi;

-oila instituti mustahkamlanadi, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhit yaxshilanadi va ajrimlar soni kamayadi;

-xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklar oldi olinishi nazarda tutilgan.

Respublikada davlat OTMlarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi. Bunga har yili kamida davlat budjetidan 200 mlrd so'm ajratiladi. Brifingda keltirilishicha, 2023-yilning o'tgan davrida o'quv yilining 2-yarmi uchun magistraturada o'qiydigan 14 110 nafar xotin-qizning to'lov-shartnomasiga 85,1 mlrd so'm mablag' to'lab berildi. 36 ming nafardan ziyod talaba xotin-qiz uchun 335,5 mlrd so'm imtiyozli (foizsiz) ta'lim kreditlari ajratildi.[3]

Bundan tashqari, 29-sentabr kuni Vazirlar Mahkamasi qarori [516-son] bilan "Kollej va texnikumlarda qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kasb (mutaxassislik) bo'yicha ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'liq davlat granti asosida ta'lim olish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Kollej va texnikumlarga tegishli yo'nalishlar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan xotin-qizlar o'quv yilining 10-oktabriga qadar ushbu kollej yoki texnikum direktori nomiga davlat granti asosida o'qish uchun ariza bilan murojaat qiladi.

Arizalar taalluqliligi bo'yicha kollej va texnikumlar tomonidan 3 ish kunida ko'rib chiqiladi hamda umumlashtirilgan holda, hududlardagi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalariga taqdim etiladi.

Hududiy bo'linmalar har yili 15-oktabrgacha umumlashtirilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuboradi. Vazirlik har yili 20-oktabrgacha umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida davlat granti asosida o'qish uchun ariza bilan murojaat qilgan xotin-qizlar ro'yxatini taalluqliligi bo'yicha tizimida kollej va texnikumlar bo'lgan vazirlik va idoralarga taqdim etadi.

Vazirlik va idoralar mazkur ro'yxat asosida xotin-qizlarning davlat granti asosida ta'lim olishlari uchun zarur mablag' ajratish yuzasidan har yili 25-oktabrgacha Iqtisodiyot va moliya vazirligiga murojaat qiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi 5 ish kuni ichida tegishli mablag'larni mazkur vazirlik va idoralarga ajratadi.

Kollej va texnikumlar direktorlari 2023/2024 o'quv yilidan davlat granti asosida ta'lim oladigan xotin-qizlar uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.[4]

Shavkat Mirziyoyevning "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 18-iyuldagi PQ-323-son qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra 2022/2023-o'quv yilidan boshlab barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini davlat budjetidan ajratishning yangi tizimi joriy etiladi.

Bunda:

- tijorat banklari Moliya vazirligi tomonidan joylashtiriladigan depozit mablag'lari hisobidan ta'lim kreditlarini 14 foiz stavkada ajratadi;
- ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi;
- ta'lim krediti bo'yicha foiz stavkalarini so'ndirish Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, ularni tijorat banklariga to'lash orqali amalga oshiriladi;
- ta'lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari va boshqa uchinchi shaxs birgalikda qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etiladi;
- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalarning xotin-qizlariga ajratiladigan ta'lim kreditlari uchun garov va kafilliklar talab etilmaydi.[5]

Shuningdek, Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida o'qishi uchun ta'lim kreditlarini ajratish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi.

FOYDALANILGAN QAROR VA FARMOYISHLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022-yil 7-martdagi PF-87-son.07.03.2022.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 402-son.23.06.2020
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori 516-son.29.09.2023
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 323-son .18.07.2022.
- 5.Sh.A.Sadikova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent-2019 yil